

O'QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH. AQLIY
TARBIYA

Ya.A. Nurumbekova

Guliston davlat pedagogika institut, Pedagogika fakulteti dotsenti

Saidova Sevara Istam qizi

pedagogika yo`nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Maqolada o`quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish bosqichlari, dunyoqarashni shakllantirishning asosiy vositalari, shuningdek aqliy tarbiya haqida.*

Kalit so`zlar: *ilmiy dunyoqarash, shakllantirish, aqliy tarbiya, pedagog, o`quvchilar, tarbiya, ta`lim, yo`nalish, vosita.*

Xalq ta`limi O`zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo`nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta`limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollari aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Ta`lim uchun mablag`larni tejash mumkin emas, degan fikrga qo`shilmasdan boshqa ilojimiz yo`q. O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi bejizga ta`kidlangan emas.

Bugungi kunda ta`lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta`lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda.

Islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida davlat muassasasi shaklida “Ta`lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi (keyingi o`rinlarda — Loyiha ofisi) tashkil etilishi to`g`risida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 02.02.2024-yildagi PQ 54-son qarorlarini qabul qildilar va ushbu qaror 05.02.2024-yil kundan boshlab amal qilishini tasdiqladilar. Ushbu loyihada pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tahlil qilish, o`qituvchilarning bilimi va qiziqishiga mos bo`lgan tabaqalashtirilgan ta`lim dasturlarini joriy qilish, mazkur jarayonga nodavlat va xalqaro tashkilotlarni jalb qilish, 2024-yil 1-sentabrga qadar o`quvchilar (talabalar)ning egallagan bilimini va pedagoglarning malakalarini baholash tizimini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, 2024-yil yakuniga qadar 3-ildavda belgilangan muassasalar faoliyatini qayta ko`rib chiqish va ulardagi ta`lim sifatini oshirish bo`yicha zarur choralar ko`rish, shuningdek 2024-2025-yillarda: Professional ta`lim yo`nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorini — Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatoriga, ta`lim dasturlarini esa — yangilangan kasbiy standartlar va malaka talablariga moslashtirish kabi ustuvor yo`nalishlarni belgilab berdilar [1].

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. B.X.Xo'djayev „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti“ nomli darsligida „Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi [2,63].

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.” deb yozadi. Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi Jamoliddin Saydullayev Yaxshiboyevich „Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.” deya o'zining „Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning psixologik mexanizmlari” nomli maqolasida ta'kidlab o'tadi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda kishi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning ko'rinib turgan ifodasiga, shakliga qarab emas, balki ularning ichki mohiyatiga, mazmuniga baho berish kerak. Ilmiy dunyoqarashni hamma vaqt bir zaylda, o'zgarmay turaveradigan bilimlar deb qaramay, bilimlar to'la bo'lmagan bilimlardan to'la bo'lmagan bilimlardan to'la bilimlarga qarab borishligini unutmaslik zarur. Hozirgi yosh pedagoglarning kamchiliklaridan biri ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda badiiy adabiyotning, xalq og'zaki ijodi ertaklarining, hikoya va qissalaridan foydalanmasliklarini misol qila olishimiz mumkin.

Aqliy tarbiya ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlari, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Har bir metod yoki innovatsion dars shabloni to'liq holda dars jarayoniga yoki har bir sinfga mos kelmasligi mumkin, bunda pedagog yangilikni biroz o'z sharoitiga moslab, dars jarayonida qo'llashi yana ham tushunarli va oson bo'lishiga olib keladi. Aqliy tarbiya berishda kuzatish, hikoya qilib berish, suhbat metodlaridan foydalanish samarali natija bermasligi ma'lum.

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o'rni, mohiyati, hayotiy yo'nalishini, o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'z-o'zidan uch bosqichdan iborat. Pedagog o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ushbu bosqichlarni to'g'ri tashkil eta olishi kerak. Pedagoglar o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy vositalari inobatga olinishi kerak. Ilmiy dunyoqarashning shakllantirishning asosiy vositalari: intellektual tarkibiy qism, ijobiy emotsional holat, amaliy faoliyat

sohasi, fanlararo aloqadorlik, pedagogning ijtimoiy va kasbiy pozitsiyasi kabilarni sanab o'tishimiz mumkin. Dunyoqarash asoslarining shakllanishi aqliy tarbiyaning o'zlashtirilishi jarayoni oson kechadi. Aqliy tarbiya ta'lim oluvchilarning intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ta'lim oluvchining yangi bilimlarni puxta egallay olishiga olib keladi. „Bizning eng katta ustuvor vazifamiz yoshlarga ulkan maqsadlar qo'yish va ularga erishish uchun imkoniyatlar berishdir. Shundagina bolalarimiz xalqimizning azaliy orzularini amalga oshiradigan haqiqiy kuchga aylanadi” dedilar prezidentimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz
2. B.X. Xo'djayevning „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” darsligi
3. N. Atayev F. Rasulova S. Hasanov „Umumiy pedagogik”. Toshkent: 2011
4. Nemov R.S., Kirpichnik A.G. Jamoaga yo'l / talabalar jamoasi psixologiyasi haqida o'qituvchilar uchun kitob. - M.: Pedagogika, 1988 yil.
5. Ivanov P.I. M. Zufarova “Umumiy psixologiya” T.: 2008 y